

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH)**

ILMIY JURNALI

3

2023

Toshkent

**3
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal**

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

MUASSIS

Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof., akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich - i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadridin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich – i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich - i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich - i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich - i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich - i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich - i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich - i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich - i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.f.d., dotsent
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dotsent
Asqarova Mavluda Turopovna – i.f.n., dotsent
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich – i.f.n., dotsent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dotsent
Kamalova Malika Nizamovna – i.f.n., dotsent
Mamaraximov Bekzod Erkinovich – i.f.n., dotsent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinov – (AQSh)
Uktam Burxanov – (Chexiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Volfgang Lukas (Germaniya)
N.V.Morozov (Rossiya)
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

**3
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Bosh muharrir o'rinbosari

Amirov L.F. - PhD

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydala-nilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" elektron ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart.

Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT

Shadmanov E.Sh., Maxsadov M.O.	Improvement of methodology of accounting and analysis of included financial statements and investments in subsidiary societies
Irgashev D.I. Muxtarov Sh.Sh.	Aksiyadorlik jamiyatlari foydasini optimal taqsimlashda dividend siyosatini takomillashtirish yo‘llari
Abdurakhman M.A. Abdurakhim A.B. Elnoza A.K.	Analysis of international experience in assessing the efficiency of bim technologies in construction

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

Usmanova R.M.	Makroiqtisodiy darajada ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish yo‘nalishlari
---------------	--

INSON RESURLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK

Mamaraximov B. E.	Ishchi kuchini takror ishlab chiqarishda bandlik xizmati muassasalarining ahamiyati
Azizbek Ismoilov	Aholi bandligi va uni tartibga solish nazariyalari tahlilining uslubiy asoslari

TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

Gafurov Anvar	Oliy ta’lim muassasalarini boshqaruvini takomillashtirish islohotlari
Усманова С.С.	Тенденции развития фармацевтической промышленности республики узбекистан
Нигматова Д Адилов Б	Финансовые отношения – в мире бизнеса
Usmonov Sh. Sh.	“Yashil” iqtisodiyotda quyosh energiyasining o‘rni va undan foydalanish masalalari

Egamberdiyev M

Роль социального сельского хозяйства в условиях
модернизации экономики. (на примере опыта
республики чехия)

TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH ISLOHOTLARI

REFORMS TO IMPROVE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

РЕФОРМЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ УПРАВЛЕНИЯ ВУЗАМИ

Gafurov Anvar
Alfraganus university
Iqtisodiyot kafedra mudiri, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasa(OTM)larida manfaatdor tomonlardan korporativ boshqaruv tuzilmasi va mexanizmi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishga qanchalik ahamiyat berilishi yoritiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qancha rivojlangan davlat OTMlarida korporativ boshqaruvining asosiy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, korporativ boshqaruv, javobgarlik, yuksalish, shaffoflik.

Abstract. This article highlights the importance given to the disclosure of information about the structure and mechanism of corporate governance by stakeholders in Higher Education Institutions (HEIs). To achieve this goal, information on the main aspects of corporate governance is disclosed in several developed state enterprises.

Key words: Higher education institution, corporate governance, accountability, growth, transparency.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность, придаваемая раскрытию информации о структуре и механизме корпоративного управления заинтересованными сторонами в высших учебных заведениях (ВУЗах). Для достижения этой цели на ряде развитых государственных предприятий раскрывается информация об основных аспектах корпоративного управления.

Ключевые слова: ВУЗ, корпоративное управление, подотчетность, рост, прозрачность.

KIRISH

Davlat sektoridagi qarashlar - boshqaruvning kengroq to'plamiga chuqur singib ketishi asosida korporativ boshqaruv tizimi shakllanishiga zamin yaratdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo davlatlarda byurokratik tizimni kamaytirish asosida boshqaruvda samaradorlik va shaffoflik ko'rsatkichlarining yuqorilash orqali yangi davlat boshqaruvi (New public management)ning shakllanishiga poydevorni yardi.

Rivojlangan davlatlardagi ushbu yangi davlat boshqaruvining asosi ham osmondan olinmadi, shunchaki xususiy sektor boshqaruv usullari davlat sektoriga o'zlashtirish asosida shakllandi. O'zlashtirilgan usullarga asosan quyidagi jihatlarni kiritishimiz mumkin:

- markazlashmagan boshqaruv;
- natijalarga asoslangan moliyalashtirish;
- rejalashtirilgan natijalar bo'yicha hisobdorlik;
- strategik boshqaruv va rejalashtirish;
- shartnomaga asoslangan munosabatlarni qabul qilish;
- boshqaruv madaniyatini mustahkamlashib borish [1].

So'nggi yillarda New Public Management uslubidagi yangi islohotlar Yevropa mamlakatlaridagi oliy ta'lim muassasalarini boshqarishga ham katta ta'sir ko'rsatishni boshladi. A'zo mamlakatlar soni oshib borayotgan ittifoqda OTMlar o'zlarining moliyaviy va inson resurslarini boshqarishda, ta'lim jarayonida, tadqiqot dasturlari va talabalarni qabul qilish hajmi bo'yicha qaror qabul qilishda yuqori mustaqil bo'lishga olib kela boshladi. Ushbu mustaqillik darajasini ortishi natijalarga asoslangan moliyalashtirish manbalari ham birika boshladi: davlat mablag'lari tobora ortishi, mahsulot yoki natija ko'rsatkichlari sifatida ifodalangan maqsadlarga erishish uchun bog'liq darajasi ortdi [2].

XXI asr OTMlari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni qabul qilishi zarur va korporativ boshqaruv kabi xususiy sektor modellariga amal qilish tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ushbu tizimga rioya qilgan holda, OTMlar korporativ siyosat va rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda tajribaga ega bolgan va rahbarlik qilish hamda boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan boshqarilishi lozimligini ko'rsatadi.

Mazkur korporativ boshqaruv tuzilmasi oliy ta'lim muassasalarining nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini amalga oshirishi, uzoq muddatli biznes-rejalar tuzishi, o'z missiyasi va strategik qarashlarini aniqlashi, asosiy faoliyat va

samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi hamda yillik byudjet harajatlarni belgilashi va nazorat qila olishiga imkon yarata oldi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlarini amalga oshirish universitet boshqaruvini takomillashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun harakatlantiruvchi vosita sifatida ifodalash mumkin, chunki u strategiyalarni belgilashda kollegial nazorat va boshqaruvi orqali samaradorlik olib keladi [3]. Shuningdek, ushbu tizim OTMning boshqaruvida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga (boshqaruvni shaffof bo'lishiga) yoki o'sib borayotgan raqobatga bardosh berishga (yangi ta'lim yo'nalishini joriy etish yoki dolzarbligini yoqoyotgan yo'nalishni tugatish), reyting pozitsiyalarini yaxshilash, xarajatlar uchun chegaralarni belgilash va kengroq hamjamiyat uchun ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy majburiyat bilan tavsiflangan munosabatni qabul qilish imkonini beradi. Universitet faoliyatini yanada samaraliroq qilish, boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, kollegial organlar taklif etilayotgan yo'nalishlar ko'lamini takomillashtirish va kengaytirishga qaratilgan [4].

OTM mustaqillik darajasini mustahkamlash uchun korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishi kerak, shu bilan birga, jamiyatga nisbatan oshkoralik va natijalar ustidan nazoratni kuchaytirishga sababchi bo'ladi. Universitetlar boshqaruvi mustaqil, hisobdorlik va baholashni bog'lashi kerak. Shu maqsadda bizning OTMlarida ushbu tizimning boshlangich qadamlari qo'yilgan, jumladan, O'zbekiston Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 35 ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Horijlik tadqiqotchilar Richard Murnane va Richard Nelson o'zlarining "Improving the Performance of the Education Sector: The Valuable, Challenging, and Limited Role of Random Assignment Evaluations" [5] maqolasida ta'lim tizimi, undagi boshqaruv haqida o'z izlanishlarida tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, ular asosan ta'lim sifati hamda uning ijobiy oqibatlari haqida qarashlarini yoritishgan.

Giancarlo Corsi o'zining "Education Reform as a Global Phenomenon"[6] nomli maqolasida ta'lim sohasidagi reformalarning salbiy va ijobiy oqibatlarni yoritgan. Joseph Zajda esa "Discourses of globalisation and higher education reforms" [7] nomli izlanishda globallashtirishning oqibatlari haqida o'z qarashlari bilan o'rtoqlashgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola ma'lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma'lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhokamalari va ish beruvchilar bilan ekspert so'rovnomalar asosida to'ldirildi.

TAHLIL VA NATIJA

O'zbekiston aholisi tez sur'atlarda o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimizni demografik ko'rsatkichini tahlil qilishimizdan maqsad, aholining qancha qismi ayniqsa yoshlar o'rtasidagi OTMlarga qamrov proporsiyani aniqlash uchun zarurdir. Endi, O'zbekistonning 2016-yildagi demografik ko'rsatkichi 31,5 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, keyingi yilda 32,1 mln. nafarga yetgan, ya'ni 545 ming kishiga ko'paygan yoki 1.6 foizga ko'paygan (1-rasm).

Demografik ko'rsatkichning 2018 va 2019-yillarida 599 ming kishi (1,8 foiz)ga, 2020-yilda 650 ming kishiga, 2021-yilda 653 ming kishiga, 2022-yilda 713 ming kishiga va 2023-yilda esa 36 mln. kishi (2.09 foiz)ga ko'paygan. Endi, umumiy ko'rsatkich bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, 2016-2023-yillar oraligida o'rtacha 654 ming kishiga yiliga o'sish bo'lgan, foiz ko'rinishida esa o'rtacha 0,14dir.

Keyingi jadvalda, aholining asosiy qismi ya'ni 15-19 yoshlar orasidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich OTM yoshiga yetganlarni hamda topshirish proporsiyasini aniqlashimiz uchun zarurdir

Hozirgi kunda respublikamizda ham sezilarli darajada umumiy ta'lim muassasalari soni nodavlat soha vakillari hisobiga o'sib bormoqda, jumladan, 2019-yilda Respublika bo'yicha jami 10 090 ta maktablar bo'lgan bo'lsa, 2020-yilda 10 181ta (oldingi yilga nisbatan –1 foiz ko'p)ga, 2021-yili 10 289ta (oldingi yilga nisbatan – 2 foiz ko'p)ga va 2022-yilda 10 522 ta (oldingi yilga nisbatan–1 foiz kamaygan) ko'rishimiz mumkin

Endi, shu yillar davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olgan o'quvchilar soni ham tahlil qilib chiqadigan bo'lsak. Demak, 2022-yilda 10522ta maktab dargohlarida 6 461 ming o'quvchi tahsil olgan bo'lib, bu degani 1 maktabda 615 nafar o'quvchi o'qiydi degani. Endi, 2021- yilga nisbtan 3 foizga o'quvchilar ko'paygani ko'rishimiz mumkin, maktablar soni bo'yicha ko'radigan bo'lsa, respublika bo'ylab 233 ta yangi maktab dargohi qurilgan bo'lmoqda (4-rasm).

Maktab o'quvchilarini yiliga o'rtacha ko'payish hajmini ko'radigan bo'lsak, 2016-yildan 2022-yilga qadar yiliga 235 ming o'quvchilar soniga ko'payib borgan. Maktablar soni ham tahlil qiladigan bo'lsak, yiliga o'rtacha 115

ta maktab soniga oshib borganini ko‘rishimiz mumkin. 2016-yildan 2022-yilga qadar, yangi qurilgan maktablar soni 7,63 foizga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Maktab o‘quvchilar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak 2016-yildan 2022-yilga qadar 25-foizga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqot ishimizning keying rasmda maktab bitiruvchilar soni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, 2016-yilda 475 ming o‘quvchi bitirgan bo‘lsa, jami 2016-yilda bitiruvchilarning 9.8 foizi tamomlashgan. O‘quv yilining 2016-yilida jami 5263 ming o‘quvchidan 466 ming (8.85 foizi) bitiruvchilari tamomlashgan. O‘quv 2018-yilida 475 ming o‘quvchi bitirishgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbatan 2 foizga ko‘p bitirishgan

O‘quv yilining 2019-yilida 280 ming bitiruvchilar maktabni tamomlashgan bo‘lsa, 2018- yilga nisbatan 41 foizga kamaygan bo‘lib, shu yili barcha maktab o‘quvchilarining 4.54 foizidir. O‘quv 2020-yilida 174 ming (38 foiz)ga ko‘paygan bo‘lib. Shu 2020-yildan 2022-yilga borib, yana kamayish bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin, 2021-yilda 2020-yilgan nisbatan 12 ming nafarga bitiruvchilarni ko‘rishimiz mumkin. 2022-yilda esa yana 54 mingga kamaygani ko‘rishimiz mumkin.

Umumiy maktab bitiruvchilar o‘z navbatida nechitasi OTMlarga topshirganini tahlil qilishi uchun eng avvalombor, respublikamizda nechta oliy ta’lim muassasalar sonini bilib olishimiz zarur. O‘zbekistonda 2016-yilga qadar OTM soni 70ta bo‘lgan bo‘lsa, keying yilda esa 2ta yangi ochilganligi sababli 72 taga yetdi

Keyingi 2018-yilda yangi va OTM filialining ochilishi sababli 98 taga yetdi, 2017-yilga nisbatan 26taga ko‘paydi. OTMlarning soni 2019-yilda yana yangi 21 ta yangi ilm dargohlarning ochilishi sababli 119ta bo‘ldi. Pandemiya sababli 2020-yilda yangi OTMlar soni 127 ta yetdi, boshqacha qilib aytganda 9 ta yangi OTM ochilganini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi yangi 2021-2022-o‘quv yili uchun 154 ta OTMlar faoliyatini boshlagan bo‘lsa, bu 2018-yilga nisbatan 27 taga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin.

OTMlar soni yana o‘shishda davom etib, 2022-yilda ularning soni 191 taga yetdi va eng ko‘p ochilgan OTMlar soni shu yilda amalga oshirildi. Keyingi 2023-2024-o‘quv yilida O‘zbekistonda 212 ta OTM faoliyatini yurita boshladi. Endi yuqoridagi maktab o‘quvchilari haqida statistik ma’lumotlarni berishning asosiy maqsadi, OTMga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun tahlil sifatida ko‘rsatildi. Hozirgi kunda (2023-yil oktyabr) respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotiga ko‘ra [8] umumiy 212 ta OTMlar 3 turga arjatishimiz mumkin, bular:

1. Davlat – 116 ta;

2. Nodavlat – 66 ta;
3. Xorijiy – 30 ta.

Keyingi jadvalda OTMlarga hujjat topshirganlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2016-yilda 673 ming abiturient hujjat topshirgan bo‘lsa, OTMlar soni 70 ta bo‘lgan. Demak, o‘rtacha hisob kitoblarga binoan 1 OTMga o‘rtacha 9615 ta abiturient to‘g‘ri kelgan. Keyingi 2017-yilda hujjat topshiruvchilar soni 113 ming nafar (14 foiz)ga ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin, ushbu yilda maktab bitiruvchilar soni 466 mingda bo‘lgan bo‘lsa, bitiruvchilarga qaraganda 40 foiz ko‘proq hujjat topshirganlar bo‘lishgan.

Keyingi 2018-yilda hujjat topshiruvchilar soni 813 ming nafarga yetgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbata 4 foizga ko‘pdir. Shu yili maktabni bitirganlar soni esa 475 ming nafarni tashkil etgan. OTMlar soni esa 98 ta bo‘lgan bo‘lsa, o‘rtacha bir universitetga 8295 nafar talaba to‘g‘ri keladi. Keyingi 2019-yilda hujjat topshiruvchilar soni 1 mln. 157 mingni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilga nisbatan 344 ming hujjat topshirganlarga ko‘pdir. Keyingi 2020-yilda esa 1 mln. 820 ming nafar hujjatlar topshirgan soni bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga nisbatan 663 ming nafarga ko‘pdir, bu farqli ko‘rsatkich 2016-yilda hujjat topshirganlar soni bilan bir hildir.

2021-yilga kelib hujjat topshiruvchilar sonida keskin kamayishni kuzatishimiz mumkin, sal kam 500 ming nafarga yoki 34 foizga kamdir. Shuningdek, ushbu yilda OTMlar soni respublika bo‘yicha 191 tani tashkil etgan bo‘lsa, maktab bitiruvchilar soni 442 mingni tashkil etgan. Keyingi 2022-yilda esa hujjat topshiruvchilar soni 1656 ming nafarga yetgan bo‘lsa, 2021-yil bilan solishtirganda sal kam 400 ming nafar yoki 27 foizga ko‘pdir.

OTMlarga qabul qilingan talabalar sonini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Demak 2016-yili 475 ming nafar o‘quvchi maktabni bitirishgan bo‘lsa, 70 OTMga 673ming nafari hujjat topshirishgan, shunda 61 200 tasi talaba maqomiga ega bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Bu 9 foizi talaba bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi degani, qolgan 91 foizi yani 610 ming tasi o‘qishga kira olmadi degani.

2017-yilda esa 466 ming nafar maktab bitiruvchilari bilan 320 nafar oldingi yillarda OTM kira olmaganlar jami 786 ming nafar abiturient hujjat topshirishga 72ta OTMda talaba bo‘lish uchun, lekin atiga 63 ming nafari talaba bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Qiziq tomoni qabul paramateri sal kam 2.9 foizga ko‘paygan 2016-yilga nisbatan, bu yilda O‘zbekiston demografik ko‘rsatkichida 15-19 yoshlardagilarning ulushi 2 mln. 658 mingni tashkil etgan bo‘lib, jami aholi ko‘rsatkichimiz esa 32 mln. kishi tashkil etgan paytda

Keyingi 2018-yilda 15-19 yoshli aholi ko'rsatkichi 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan, maktabni bituruvchilar soni 476 mingni tashkil etgan bo'lib, jami 813 ming abiturient 98ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 114 minggi talaba bo'lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atiga 14 foizi talaba bo'ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo'lsak sal kam 44 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

2019-yilda 15-19 yoshli aholi ko'rsatkichi deyarli 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan maktabni bituruvchilar soni 480 mingni tashkil etgan bo'lib, jami 1 157 ming abiturient 119 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 138 minggi talaba bo'lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atiga 11 foizi talaba bo'ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo'lsak sal kam 17 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

2020-yilda 15-19 yoshli aholi ko'rsatkichi deyarli 2.5 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 10181 ta maktabda tahsil olayotgan 6.2 mln. O'quvchidan 454 ming bitiruvchilar 127 ta OTMga jami 1.8 mln. abiturient hujjat topshirishgan bo'lib, ulardan 9.6 foizi yoki 175 ming nafari talaba bo'lishgan. Bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 21 foizga ko'p degani.

O'zbekistonning demografik ko'rsatkichi 2021-yilda 34.5 mln. kishini tashkil etgan bo'lib, shundan 15-19 yoshdagilar soni 2.5 mln. bo'lib, shu yilda barcha maktab muassasalari soni 10289 tadan 442 ming bitiruvchilar bilan birga jami 1.2 mln. abiturient hujjatlarini 154ta OTMga kirish uchun topshirishgan, faqatgina 236 ming nafari yoki 19 foizi talaba bo'lishgan.

2022-yilda maktabni bituruvchilar soni 388 mingni tashkil etgan bo'lib, jami 1 656 ming abiturient 191 ta OTMga kirish uchun hujjat topshirishgan, faqatgina 282 minggi talaba bo'lishgan, bu jami hujjat topshirganlarning atiga 17 foizi talaba bo'ldi degani. Oldingi yil bilan solishtiradigan bo'lsak, sal kam 16 foizga ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda 2023-yilda respublikamizda 212 ta OTM faoliyat yurutib kelmoqda, ushbu OTMlarda jami 1 203 125 nafar talaba tahsil olib kelmoqda. Agarda jins vakillari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, erkak talabar soni- 601 325 va ayol talabalar soni esa 601 800ni tashkil etadi

Ushbu talabalarning 1,203 ming talabalarga 212 OTMning quyidagi o'quv shaklida tahsil olishadi:

- Kunduzgi;
- Sirtqi;
- Kechki;
- Qo'shma;
- Masofaviy.

Agarda o'quv shakli bo'yicha tahlilni amalga oshiradigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotga ega bo'lamiz, ya'ni kunduzgi ta'lim shaklida 657 ming talaba, sirtqi ta'lim shaklida 482 ming va kechki ta'lim shaklida salkam 44 ming talabalar tahsil olib kelishadi

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yildagi statistik ma'lumotiga ko'ra, 1 203 ming talabalarning kunduzgi ta'lim shaklida 657 ming (54 foizi) nafari tahsil olib kelmoqda, sirtqi ta'limda esa 482 ming (40 foizi) talabani qamrab olgan bo'lsa, kechki 43 ming (3.65 foiz), qo'shma 11 ming (0.9 foiz) va masofaviy ta'lim shaklida esa 8 ming (0.6 foiz) tahsil olishmoqda.

OTMlar bitiruvchilar sonini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagicha ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Tahlilimizning 2016-yilda respublikada 70 ta OTMlar faoliyat yurutayotgan paytda 61,2 ming talaba qabul qilingan bo'lib, 67,2 ming talaba bitirishgan. Endi kirganlar bilan bitirganlar soni 6 ming kishiga ko'pdir, sababi 2016-yilda qabul qilinganlar 2020-yilda bitirishadi reja bo'yicha, 2016-yilda bitirayotgan talabar esa 2012 yilda OTMga kirgan hisobidir. Keyingi 2017-yilda respublika bo'yicha 63 ta OTMlarni 66,3 ming talaba bitirishgan bo'lsa, shu yilda hujjat topshirganlar soni 786 ming nomzod bo'lgan. Keyingi 2018-yilda faoliyat yurutayotgan OTMlar soni 98ta bo'lib, ularni bitiruvchilar soni 64,1 ming bo'ldi

Keyingi yillarni tahlil qilayotgan, shu tahlil yilidan 4 yil oldingi yil bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlilimizning keyingi 2019-yilida, respublikamizda faoliyat yurutayotgan OTMlar soni 119 tani tashkil etgan bo'lsa, lekin bu 2019-yilda bitiruvchilar soni 2016-yilda OTMlarga hujjat topshirib kirganlardir. Shu sababli 2016-yilda 673 ming abiturient hujjat topshirib, ulardan 61,2 minggi talaba bo'lishgan bo'lsa, ushbu kirgan talabalarning 67,4 minggi yoki 9 foizga ko'proq kirganlarga nisbatan tamomlashgan. Bunday tavofutni bo'lishga sabab, ayrim talabalar akademik ta'til olib, kechroq bitirganlar sababdir.

Tahlilimizning 2020-yilida 70,8 ming talaba tamomlashgan bo'lsa, ushbu bitiruvchilarning 2017-yildagi 72ta OTMlarni bitirganlardir, ushbu 2017-yilda 786 ming abiturient topshirishgan bo'lsa, ulardan 63 minggi talaba bo'lishgan. Keyingi 2021-yilni tahlil qilish uchun, 2018-yildagi 813 ming abiturient hujjat topshirishgan bo'lib, ularda 114,5 minggi talaba bo'lishgan bo'lib, shu 114,5 mingdan salkam 84 minggi tamomlashgan. 2022-yilda, OTMlarni 104 ming bitiruvchi tamomlagan bo'lsa, bu bitiruvchilar 119 ta OTMlarga 2019-yilda hujjat topshirgan abiturientlardir 1157 mingdan 138,1 mingi talabalik maqomiga loyiq bo'lgan talabalardir.

Endi Respublikamizda faoliyat yurutayotgan OTMlar bo'yicha qamrov olish darajasini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Respublikamizda 2016-yilda 9719 ta umumiy maktablarni 475 ming bitiruvchilar bitirishgan bo'lib, 70 ta OTMlariga hujjat topshirishgan qamrov darajasi 9 foizni ko'rsatgan.

2017-yili respublikamizda 72 ta OTM faoliyat yurutib qarov darajasini 11 foizga ko'tarishdi 63 ming nafar talabarlarni qabul qilish orqali, 2018-yilda qamrov darajasi 15 foizga yetib 114 ming talabani jalb etishga erishildi. 2019-yilda 138 ming talabani talabalik safiga qo'shish natijasida qamrov darajasi 20 foizga yetdi. 2020 o'quv yilida qamrov darajasi 25 foizga yetdi, 127 ta OTM bilan salkam 175 ming nafar talabalarni qabul qilishdi. Talabalarni 154 OTMlarga qamrov darajasi 2021-yilda 28 foizga ko'tarildi 154ta OTMning faoliyat yurutayotgani sababli 236 ming talablarni talabalar safiga qo'shilishiga sababchi bo'ldi. O'quv yilining 2022-yilida esa respublikasimida faoliyat yurutayotgan 191 ta OTMlar sababli 282 ming talabalik maqomiga ega bo'lish orqali qamrov darajasini 38 foizga oshirishga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030 yilga borib 50 foizga chiqarish rejalashtirilgan.

XULOSA

Respublikamizda olib borayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar o'z navbatida yangi boshqaruv tizimini kirib kelishiga zamin yaratadi. Bu tizim esa, yangicha yondashuvlarni chaqiradi, bu esa rivoj topayotgan mustaqil davlatning ajralmas qismidir. Oliy ta'lim muassasalari o'z vazifalarini bajarish uchun ustuvor yo'nalishlarni va shunga mos ravishda maqsadli resurslarni aniqlashi kerak. Universitetlar strategiyalarni aniqlay olmasalar, ustuvorliklarni belgilay olmasalar, o'qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olmasa va amalga oshira olmasa hamda umuman o'z tuzilmalari va tashkilotlarini o'zgaruvchan muhitga moslasha olmasa, samarali va mustahkam bo'lolmaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aucoin, P. 1990. Administrative reform in public management: Paradigms, principles, paradoxes and pendulums. Governance 3(2): 115–137.
2. Leitner, K.H., Elena, S., Fazlagic, J., Kalemis, K., Marinaitis, Z., Secundo, G., Sicilia, M.A., and Zaksa, K. 2014. A strategic approach for intellectual capital management in European universities. Guidelines for Implementation, UEFISCDI Blueprint Series.

3. Florez, J.M., M.V. Lopez, and A. Lopez. 2014. Corporate governance, analysis of the top 100 universities in the Shanghai ranking. *Revista de Educacio'n* 364: 170–196.
4. Trakman, L. 2008. Modelling university governance. *Higher Education Quarterly* 62(1/2): 63–83.
5. https://www.researchgate.net/publication/24078556_Improving_the_Performance_of_the_Education_Sector_The_Valuable_Challenging_and_Limited_Role_of_Random_Assignment_Evaluations.
6. https://www.researchgate.net/publication/374938753_Education_Reform_as_a_Global_Phenomenon.
7. https://www.researchgate.net/publication/357226881_Discourses_of_globalisation_and_higher_education_reforms.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, <https://stat.edu.uz/>
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida muallif ishlanmasi.

Iqtisodiy tadqiqotlar

ILMIY JURNALI

Tahririyat manzili:
100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani, I. Karimov ko'chasi 49-uy
Telefonlar *****